

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

TURDIYEVA DILAFRUZ MAXMUDJANOVNA

**XX-XXI ASRLARDA MALAYZIYA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA
DINIY OMILNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

07.00.04 – Dinshunoslik

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UO‘K: 28:316.334.3(595)
T-80

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата
доктора философии (PhD) по историческим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of the
Doctor of Philosophy (PhD) on Historical Sciences**

Turdiyeva Dilafruz Maxmudjanovna

XX-XXI asrlarda Malayziya ijtimoiy-siyosiy hayotida diniy omilning o‘rni va ahamiyati3

Турдиева Дилафруз Махмуджановна

Роль и значение религиозного фактора в социально-политической жизни Малайзии в XX-XXI веке25

Turdieva Dilafruz Maxmudjanovna

The role and importance of the religious factor in the social and political life of Malaysia in the 20th-21st centuries49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

TURDIYEVA DILAFRUZ MAXMUDJANOVNA

**XX-XXI ASRLARDA MALAYZIYA IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA
DINIY OMILNING O‘RNI VA AHAMIYATI**

07.00.04 – Dinshunoslik

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Tar47 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iiu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yovqochev Shuxrat Akmalevich siyosiy fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Madayeva Shaxnoza Omonullayevna, falsafa fanlari doktori, professor Turayev Baxtiyor Omanovich, falsafa fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56, Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: info@iiu.uz. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (128-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871)244-00-56, Faks: (99871)244-00-65, e-mail: info@iiu.uz. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "___" _____ da tarqatildi.
(2023-yil "___" _____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R.Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A.Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Z.M.Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda jahon mamlakatlari rivojida, davlat va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning shakllanishida diniy omilning ta'siri tobora ortib bormoqda. Bu jarayonlarni biz Afrika va Yevrosiyo qit'alarida kuzatishimiz mumkin. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida – tez rivojlanayotgan musulmon mamlakatlarida kuzatilmoqda. Bunday davlatlar qatoriga Malayziyani kiritish mumkin. Malayziyadagi diniy omilning o'ziga xosligi – islom dini mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning shakllanishida muhim rol o'ynashida ko'rinadi. Davlat Konstitutsiyasida (*Perlembagaan Malaysia*) islomga rasmiy din maqomi berilgan bo'lib, jamiyatda har bir soha islom tamoyillari asosida boshqariladi. Shuningdek, mamlakatda boshqa din vakillarining keng faoliyati ham kuzatiladi. Bugungi globallashtirish sharoitida dinlararo totuvlik va millatlararo tenglikni ta'minlashda Malayziyaning o'ziga xos tajribasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ilmiy markazlarida Malayziyaning ichki va tashqi siyosatida din omili, davlat va din munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari, davlat tuzumi va boshqaruviga dinning ta'siri kabi masalalar tahliliga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Dinning omil sifatidagi talqini, mohiyati, Malayziya tajribasida madaniy va diniy bag'rikenglik, etnik va madaniy plyuralizm (*pluralism*), ko'pmadaniyatli (*multiculturalism*) jamiyatda qonunchilik va demokratiya, islom dinining jamiyatning turli sohalaridagi o'rni o'rganilmoqda. Mamlakatda mavjud dinlarning xususiyatlariga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri tahliliga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekistonda diniy-dunyoviy muvozanatni ta'minlash, bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tamoyilining ustuvorligini ta'minlash masalalari katta ahamiyatga ega. Malayziya Federatsiyasi boshqa bir nechta davlatlar kabi bu yo'lni qisman bo'lsada o'tib bo'lgan hisoblanadi. Shuning uchun Malayziyaning bu boradagi tajribasi O'zbekiston uchun o'ta muhimdir. O'zbekiston hududida asrlar davomida turli din va millat vakillari o'zaro hamjihat yashab, e'tiqodlari, diniy urf-odat, marosimlariga hurmat bilan munosabatda bo'lganlar. Ko'pkonfessiyali Malayziyada ham davlat va din munosabatlarini tartibga solish, jamiyatda dinlararo bag'rikenglik muhitini ta'minlashda din omilining ahamiyati doirasida olib borilayotgan ishlarni tadqiqot doirasiga jalb etish zaruriyatni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-avgustdagi 572-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2018-yil 22-iyundagi 466-sonli "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tanlab olingan muammo doirasida olib borilgan izlanishlarni, ularning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, bir necha guruhga bo‘lish mumkin:

birinchi guruhga Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasidagi diniy bag‘rikenglik, davlat va din munosabatlari hamda konfessiyalararo munosabatlar masalalarini chuqur tahlil qilgan Sharq hamda G‘arb olimlari A.Kasimin, A.Abdul Hamid, Buvinich, H.Zakariya, H.Che, H.Langgulung, M.Shuhaimi, I.Zavavi, M.Nurhafilah, A.Samian, M.Mahathir, M.Deli, M.Roslan, A.Zaki Ibrahim, A.Faysal, J.Hamidah, M.Fayzal, A.Yusuf, A.Abdul Halim, A.Fayzuri, M.Muslehuddin, R.Hashim, B.Shamsul Amrilarining¹ ilmiy ishlari kiritilgan;

ikkinchi guruhda mintqa va u yerdagi dinlar tarixi, uning insonlar ongi, jamiyat sohalariga ta’siri, turli davrlarda, xususan, mustamlaka vaqtida Malayziyada dinlarga bo‘lgan munosabat, dinlarning urf-odat hamda hayot tarziga ta’siri va rivoji, XX asr davomida Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqalarida bo‘lib o‘tgan siyosiy hamda diniy jarayonlarni tahlil etgan rus va sobiq ittifoq olimlari A.Ionova, V.Tyurin, L.Polonskaya. V.Nguyen, N.Nikulin. B.Aliyeva. Yu.Gavrilovlarning² tadqiqotlari o‘rin olgan;

¹ Kasimin Amran. Religion and social change among the indigenous people of the Malay peninsula. Dewan Bahasa dan Pustaka Kementerian Pendidikan Malaysia. – Kuala Lumpur, 1991; Ahmad Fauzi Abdul Hamid. Islamic education in Malaysia. S.Rajaratnam School of International Studies, 2010; Pancasila. Christopher Rodney Yeoh. Malaysia, truly Asia? Religious Pluralism in Malaysia, 2005; Hafiz Zakariya. From Cairo to the Straits Settlements: modern Salafiyah Reformist Ideas in Malay Peninsula. Intellectual discourse, 2007. Vol 15. – № 2. – P. 125-146; Che Noraini Hashim&Hasan Langgulung. Islamic religious curriculum in muslim countries: the experiences of Indonezia and Malaysia. Bulletin of education&research, 2008. June. Vol. 30. – № 1. – P. 1-19; Dr.Mohd. Shuhaimi bin Haji Ishak. Cultural and religious tolerance: the Malaysian experience. International conference on migration and intercultural relations, 2009. 19-20 November; Nurhafilah Musa. Federalism, constitutionalism and democratic society in multicultural societies – a case study of Malaysia, 2008; Samian A.L. Pluralism and the study of religion: a comparative perspective.

² Ионова А. Ислам в Юго-Восточной Азии: проблемы современной идейной эволюции. – Москва: Наука, 1981; Ионова А. “Мусульманский национализм” в современной Индонезии (1945-1965). – Москва: Наука, 1972; Тюрин В. Завоевание Малайи Англией и борьба народа Малайи за свою независимость. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1961; Тюрин В. История Малайзии: Краткий очерк. – Москва: Наука, 1980. – С. 264; Тюрин В. Завоевание Малайи Англией. – Москва: ИВЛ, 1962. – С. 199; Полонская Л. Традиционные религиозные формы мировоззрения и их место в современном идейно-политическом размежевании развивающихся стран Востока. Место религии в идейно-политической борьбе развивающихся стран. – Москва, 1978; Нгуен В., Никулин Н. Взаимосвязи культур вьетов и других народов Юго-Восточной Азии. – Москва, 1978; Алиева Б. Теория двойственной истины и метод предметного разграничения в современной теологии. Наука и теология. – Москва, 1972; Гаврилов Ю. К вопросу о движущих силах прогрессивных преобразований в “третьем мире”. – Средние слои городского общества в странах Востока. – Москва, 1975; Ислам в истории Народов Востока. Сборник статей / Ред. И.Смелянская, Ред. С.Кяmileв. – Москва: Наука, 1981; Историография и источниковедение истории стран Азии и Африки: (сб.ст.) / ЛГУ им А.Жданова. – Л.: Издательство ЛГУ, 1965; Ревуненко Е. Миф. Обряд. Религия. Некоторые аспекты проблемы на материале народов Индонезии. – Москва: Наука, 1992; Докторские и кандидатские диссертации защищенные в институте востоковедения академии наук СССР с 1950 по 1970. – Москва, 1970; Антипов В. Страна, разделенная морем: Малайзия. – Москва: Мысль. 1988. – 237 с.; Воронков А. Национальная политика правящих кругов Малайзии. – Москва: Наука. 1983. – 165 с. (то же: автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1979); Герасимов А. Федерация Малайзия

uchinchi guruhga mintaqa xususiyatlarini siyosiy-diniy, etnik va tarixiy jarayonlar nuqtayi nazardan o'rgangan mustaqil O'zbekiston olimlari N.Nizomiddinov, F.Usarov, Z.Munavvarov, Sh.Yovqochevlarning³ tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. Ammo, ko'pkonfessiyali Malayziyada davlat va din munosabatlarini tartibga solish hamda jamiyatda dinlararo bag'rikenglik muhitini ta'minlashda din omilining ahamiyatini aniqlash yuzasidan kompleks tadqiqot amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan FZ-202002145 "Dinlar tarixi, ta'limoti, manbalari va an'alarini tadqiq etish asosida "Dunyo dinlari" elektron dasturi va mobil ilovasini yaratish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX-XXI asrlarda Malayziyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida diniy omilning o'rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

diniy omil va uning hozirgi zamon jamiyatga bo'lgan ta'sirini tadrijiylik asosida baholash;

(государственный строй). – Киев, Наукова думка, 1969. – 256 с.; Гончаренко С. Китайская этническая группа в Малайзии в 60-80-е годы. Автореф. дисс. ... д. и. н. – М., 1995; Гордеев В. Национальный вопрос в Малайзии. – МОСКВА: Наука. 1977. – 147 с.; Денисова Т. Хроники Тухфат ан-Нафис как источник по истории Малайи XVII-XIX вв. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1998; Жаров В. Официальные идеологические доктрины Индонезии, Малайзии и Филиппин. – Москва: Наука, 1985. – 192 с.; Иванкина Е. История формирования этноконфессионального облика современной Малайзии. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 2002; Иванов Н. Роль ислама в общественно-политической жизни современной Малайзии. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1994; Колосков Б. Малайзия вчера и сегодня. Опыт проблемного исследования истории развивающихся стран. – М.: Мысль, 1984. – 303 с.; Новопашина Л. Малайский архипелаг в планах и политике Великобритании в конце XVIII-первой четверти XIX в. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 2006; Новосельцева В. Национальная политика правительства Махатхира Мохамеда в Малайзии: 1981-1999 гг. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1999; Погадаев В. Оппозиционные партии Малайзии (1957-1971). Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 1976; Погадаев В., Ротт Н., Павленко А. Малайзийско-русско-английский словарь. Около 15000 слов. – М.: Рус. яз., 1977. – 400 с.; Ревуненкова Е. Народы Малайзии и Западной Индонезии (некоторые аспекты духовной культуры). – М.: Наука, 1980. – 274 с.; Ревуненкова Е. Миф и ритуал: (На материале духовной культуры народов Малайзии и Индонезии). Автореф. дисс. ... д. и. н. – СПб., 1994; Ревуненкова Е. Сулалат-ус-салатин: малайская рукопись Крузенштерна и ее культурно-историческое значение. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2008. – 480 с.; Национально-освободительное движение в Малайе (1945-1950 гг.) Автореф. дисс. ... к.и.н. – М., 1951; Ротт Н. Очерки новейшей истории Малайи (1918-1957). – М.: ИВЛ., 1959. – 118 с.; Ротт Н.В. Малайя (1945-1963). – М.: ИВЛ., 1963. – 208 с.; Ротт Н. Малайзия. Политическое развитие (1963-1968). – М.: Наука, 1969. – 228 с.; Ротт Н. Малайзия и Сингапур после второй мировой войны и политика США и Англии. – М.: Наука, 1981. – 224 с.; Ротт Н. Политика США в Юго-Восточной Азии. – М.: Наука, 1986. – 191 с.; Сулицкая Т. Англия и Малайзия (1961-1971). – М.: Наука, 1973. – 182 с.; Сулицкая Т. Страны АСЕАН и международные отношения в Юго-Восточной Азии. – М.: Наука, 1985. – 135 с.; Тхор С. Свод законов "Унданг-Унданг Мелака" ("Малакский кодекс") как источник по истории Средневековой Малайи: XIV-XVI вв. Автореф. дисс. ... к. и. н. – М., 2005; Хренов Ю. Экономические последствия английского колониализма на Северной Калимантане (1839-1963). Автореф. дисс. ... к. э. н. – М., 1965; Хренов Ю. Северный Калимантан. (1839-1963). – М.: Наука, 1966. – 175 с.; Хренов Ю. Экономическое развитие Малайзии. – М.: Наука, 1975. – 216 с.

³ Низомиддинов Н. Жануби-Шаркий Осиё минтақаси диний-фалсафий таълимотлари ва ислом. – Тошкент: Зар-калам, 2006; Усаров Ф. Ўзбекистон Республикаси ва Жануби-Шаркий Осиё мамлакатлари ўртасида иқтисодий ва маданий соҳалардаги ҳамкорлик (Малайзия давлати мисолида: 1991-2005-йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2010. – 32 б.; Саидазимова Г. Интеграция как глобальный процесс и её значение для государств Центральной Азии (на примере Юго-Восточной Азии). Дис. ... канд. полит. наук. – Ташкент, 2001. – 189 с.; Ёвқочев Ш., Раҳимжонов Д. ва муаллифлар жамоаси. Марказий Осиё динлари тарихи. – Тошкент: Тошкент Давлат шарқшунослик институти, 2006. – 208 б.

Janubi-Sharqiy Osiyoda qadimgi diniy ta'limotlar va ularning jamiyatdagi o'rnini aniqlash;

XX asrda Malayziyada diniy xilma-xillik va uning jamiyatdagi o'rnini ochib berish;

hududda diniy islohotchilik g'oyalarining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini belgilash;

“Islom Hadhari” konsepsiyasi va uning mazmun-mohiyatini yoritish;

Malayziyada davlat va din munosabatlarini tahlil etish;

mamlakatda diniy ta'lim tizimi va uning o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatib berish;

Malayziyada diniy-dunyoviy muvozanatni saqlashda davlatning mavqeyini aniqlash hamda mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida XX-XXI asrlarda Malayziyada diniy omilga doir tarixiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini diniy omilning Malayziya ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'siri bilan bog'liq masalalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va tadrijiylik, qiyosiy-nazariy tahlil, tizimli, kompleks yondashuv va boshqa ilmiy bilish usullaridan foydalanildi hamda dinshunoslik bo'yicha olib borilayotgan izlanishlarga qo'yilgan talablar – xolislik, barcha diniy e'tiqod vakillariga hurmat bilan yondashish va diniy mutaassiblikka murosasizlik kabi tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Malayziyada dinlararo (hindi-buddaviy madaniyat, xitoy milliy dinlari, xristianlik) raqobat sharoitida Islom taraqqiyoti departamenti (*Jabatan Kemajuan Islam Malaysia*) tashkil etilib, mamlakat boshqaruvida islom dinini yetakchi o'ringa olib chiqish va islom ta'limini uzluksiz o'quv tizimiga joriy etish orqali islom qadriyatlarini saqlab qolish hamda rivojlantirishga erishilayotgani isbotlangan;

1970-yildagi malay va hindi-xitoy millatlari o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etish hamda uch millat hamkorligini ta'minlash maqsadida jamoalar manfaatidan milliy manfaatni ustun qo'yuvchi 5 tamoyil (*xudoga ishonish va diniy bag'rikenglik, islom rasmiy davlat dini, qirol va davlatga sodiqlik, qonunlarni hurmat qilish, axloq normalariga rioya etish*)dan iborat “Rukunegara” (“*Rukun Negara*”) mafkuraviy ta'limot joriy etilgani aniqlangan;

globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylikni tenglikda saqlash maqsadida diniy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarining “Islom Hadhari” (“*Islam Hadhari*”) dasturi tamoyillari asosida modernizatsiya qilinishi diniy maktab bitiruvchilarining kelajakda rasmiy oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish imkoniga ega bo'lishi isbotlangan;

Malayziya Konstitutsiyasida islom davlat dini sifatida belgilangan bo'lsa-da, Budda kuni (*Vesākha, Vaiśākha*), Divali (*दीपावली, Dīpāvalī*) va Taupusam (*தைபூசம், Thaipusam*) bayrami, Рождество, “Страстная пятница” diniy bayramlarining davlat tomonidan rasmiy tan olinishi mamlakatning dunyoviy davlat o'laroq barqaror rivojlanishini ta'minlovchi tayanch vazifasini o'tayotgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Muhammad Badaviy tomonidan ilgari surilgan “Islom Hadhari” dasturida bayon etilgan qoidalar naqshbandiylik tariqatining “Dil ba yoru dast ba kor” tamoyiliga hamohang kelishi asoslangan;

XXI asr boshida Bosh vazir lavozimini egallagan Muhammad Badaviy tomonidan ilgari surilgan va milliy islom shaklini targ‘ib etuvchi “Islom Hadhari” dasturida ilgari surilgan ilm-fanni egallash, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni asrash va yuksak mudofaa qudrati kabi tamoyillar aholida fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirishga xizmat qilgani isbotlangan;

Malayziyada diniy uyg‘unlik eng muhim ustuvor jihatlardan biri bo‘lgani sababli hukumat qoshida diniy totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlashga qaratilgan dinlararo guruh hamda komissiyalar faoliyatining yo‘lga qo‘yilgani ochib berilgan;

mamlakat asosiy qonunida rasmiy din sifatida islom dini belgilangani sababli musulmonlar orasida missionerlik faoliyatining taqiqlanishi, o‘z dinini o‘zgartirganlarga ham jazo sanksiyalarining mavjud ekani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyaning nazariy xulosalari orqali globallashuv davrida din omilining ijtimoiy, siyosiy, diniy-ma‘rifiy jarayonlarga ta‘sir etish tendensiyalarini baholash hamda din va davlat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil etish orqali metodologik yondashuvlarni shakllantirish borasidagi nazariy konsepsiyalarni takomillashtirish, dinshunoslik, davlat va din munosabatlari bo‘yicha darslik hamda qo‘llanmalar tayyorlash, mavzuga doir tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik hamda idoralar, oliy ta‘lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlash, ixtisoslashgan ta‘lim muassasalarining o‘quv kurslari va dasturlari, “Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta‘limotlari”, “Islom va hozirgi zamon”, “Xalqaro munosabatlar”, “Dinshunoslik”, “Mintaqashunoslik”, “O‘rganilayotgan mintaqa mamlakatlari ichki va tashqi siyosati” fanlarini o‘qitish hamda tegishli yo‘nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “XX-XXI asrlarda Malayziya ijtimoiy-siyosiy hayotida diniy omilning o‘rni va ahamiyati” mavzuida olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

XXI asr boshida Bosh vazir Muhammad Badaviy tomonidan milliy islom shaklini targ‘ib etuvchi “Islom Hadhari” dasturida ilgari surilgan ilm-fanni egallash, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni asrash va yuksak mudofaa qudrati kabi tamoyillar aholida fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirishga xizmat qilgani, ushbu dasturda bayon etilgan qoidalar O‘zbekistonda keng tarqalgan naqshbandiylik

tariqatining “Dil ba yoru dast ba kor” tamoyiliga hamohang kelishi to‘g‘risidagi nazariy va amaliy xulosalaridan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi buyurtmasi bilan tayyorlangan “Islom sivilizatsiyasi” qomusiy lug‘atining mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 13-fevraldagi 08-17/135-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, islom sivilizatsiyasi borasidagi bilimlarning mustahkamlanishiga erishilgan;

1970-yildagi malay va hindi-xitoy millatlari o‘rtasidagi ziddiyatli holatlarni yaxshilash hamda millatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida Malayziyada jamoalar manfaatidan milliy manfaatni ustun qo‘yuvchi 5 tamoyil (xudoga ishonch va diniy bag‘rikenglik, islom davlat dini, qirol va davlatga sodiqlik, konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish, axloq normalariga rioya etish)dan iborat “Rukunegara” (“*Rukun Negara*”) rasmiy mafkuraviy ta‘limoti hamda din, irq va millat (*Agama, bangsa dan negara*) norasmiy mafkurasi joriy etilishi aniqlanganligi to‘g‘risidagi nazariy hamda amaliy xulosalaridan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi buyurtmasi asosida tayyorlangan “O‘zbekiston – bag‘rikeng diyor” kitobi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2023-yil 14-fevraldagi 02/69-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, kitob mazmuniga singdirilgan ma‘lumotlar o‘quvchilarda mamlakat rivojida millatlararo totuvlikning ahamiyati haqida tushunchalarning kengayishiga xizmat qilgan;

Malayziyada dinlararo (buddaviylik, hinduiylik, xitoy dinlari, xristianlik) raqobatda islom qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida Islom taraqqiyoti departamenti (*Jabatan Kemajuan Islam Malaysia*)ning tashkil etilgani, Malayziya islom siyosiy partiyasi (*Parti Islam Se-Malaysia*)ning keng miqyosdagi faoliyati orqali Malayziyada islom qadriyatlarining alohida qabul qilinishi asoslanganiga doir xulosalar O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi tinglovchilari uchun o‘qitilayotgan “Zamonaviy musulmon jamiyati” fani mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2023-yil 22-fevraldagi 02-03/1075-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Malayziyadagi dinlararo raqobatda diniy tashkilotlar va siyosiy partiyalar faoliyati haqidagi batafsil ma‘lumotlar tinglovchilar bilimining oshishiga yordam bergan;

Malayziya Konstitutsiyasida islom davlat dini sifatida belgilangan bo‘lsa-da, Budda kuni (*Vesākha, Vaiśākha*), Divali (*दीपावली, Dīpāvalī*), Taypusam (*தைபுசம், Thaipusam*), “Рождество”, “Страстная пятница” diniy bayramlarining davlat tomonidan rasmiy tan olinishi mamlakatning sekulyar davlat sifatida barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi tayanch vazifasini o‘tayotgani dalillanganiga doir xulosalar “O‘zbekiston tarixi” telekanali “Islom sivilizatsiyasi markazi: shonli tarixdan buyuk kelajak sari” tizimli ko‘rsatuvlar mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2023-yil 24-fevraldagi 06-28-437-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, keng sonli tomoshabinlar Malayziya an‘ana va marosimlari haqidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining Dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini nashr qilishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 140 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga mosligi, ishning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Diniy omilning jamiyatga ta'sirini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida diniy omilning jamiyat va davlatlar tarixidagi o'rni, xalqaro munosabatlarning rivojida dinning o'rni, jahon siyosatida dindan foydalanilganlik holatlari masalalari yoritilgan. Jahon siyosati muayyan davlatning o'ziga xosligi va urf-odatlar bilan bog'liq sharoitlar hamda omillar tufayli davlatlarning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda murakkab va ko'p qirrali munosabat ekani tahlil etilgan.

Bobning birinchi paragrafi *“Diniy omil va uning hozirgi zamonda jamiyatga ta'siri”* deb nomlanib, soha mutaxassisleri tomonidan diniy omil va unga berilgan ta'riflar, globallashuv sharoitida diniy omil ham boshqa omillardan kam bo'lmagan muhim ahamiyat kasb etishi tadqiq qilingan.

Jahon siyosatida diniy omilning kuchayishi nafaqat globallashuv jarayoni, balki xalqaro munosabatlarning ko'p asrlik sekulyarizatsiya jarayoni bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Dunyoda xalqaro munosabatlarda “Vestfal” tizimining qo'llanilishi, siyosatshunos mutaxassislar tomonidan zamonaviy jamiyatda siyosatning barcha sohadan ustun qo'yilishi sekulyarizatsiya va yangilanish jarayonlariga bo'lgan munosabat sifatida baholandi⁴.

1979-yildagi Erondagi revolyutsiya Yaqin Sharqdagi siyosatga o'z ta'sirini ko'rsatdi, diniy-ma'naviy sohaga siyosiy tusni qaytardi, qolgan dunyoda esa diniy omildan vijdon erkinligini namoyon etuvchi vosita sifatida foydalanildi⁵. XX asrga

⁴ Marty M. and Appleby R.S. Conclusion: Remaking the State: The Limits of the Fundamentalist Imagination // Fundamentalisms and the State: Remaking Politics, Economies, and Militance. – Chicago: The University of Chicago Press, 1993.

⁵ Переяшкин А.В. Религиозный фактор в современной мировой политике. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. – Пятигорск, 2015. – С. 34; Smith D.E. Religion and Political Development. – Boston: MA: Little Brown, 1970. – P. 6.

kelib xalqaro munosabatlarning diniy an'analar doirasida namoyon bo'lishida diniy omil o'zini boricha namoyon eta boshladi, u haqda turli nazariya va qarashlar paydo bo'ldi. Ularning ichida eng ko'zga ko'ringani amerikalik siyosatshunos va sotsiolog S.Xantingtonning fikrlari hisoblanadi. Muallif o'zining 1996-yilda yozilgan "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nomli kitobida keltirishicha, kelajakda dunyo islom va xristianlik dinlariga asoslangan sivilizatsiyalar to'qnashuviga duch keladi⁶.

V.Belogorsev, I.Zadorojnyuk, I.Zvyagelskaya, G.Kosov, V.Legoyda, M.Mamaladze, A.Mitrofanova, M.Mchedlova, G.Stankevich, S.Berger, S.Xantington, P.Byukenen va boshqa bir qator olimlar siyosat hamda dinning jahondagi o'rnini o'rganishga asosiy e'tiborni qaratganlar⁷.

XX asrda dinga bo'lgan salbiy munosabat XXI asrga kelib tubdan o'zgardi. Din shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi, jahon hamjamiyatining siyosiy tizimida kelishuvga erishishdagi muhim omil sifatida ko'rila boshladi. XXI asrda ham diniy omil davlatlarning tashqi siyosatiga ta'sir etishda davom etmoqda. XXI asrda xalqaro siyosatda madaniy va diniy omil ham boshqa omillardan kam bo'lmagan muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Undan hozirgacha siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishning asosiy omili sifatida foydalanilmoqda. 2009-yilning 8-12-oktabrida o'tkazilgan "Sivilizatsiyalar muloqoti" nomli jahon jamoatchilik forumining Rodos deklaratsiyasida dinlararo muloqot va bag'rikenglikka alohida e'tibor qaratilgan.

Bobning "*Janubi-Sharqiy Osiyoda qadimgi diniy ta'limotlar va ularning jamiyatdagi o'rnini*" deb nomlangan ikkinchi paragrafida mintaqa tarixida mavjud bo'lgan dinlar, ularning rivoji hamda bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi diniy e'tiqodiga ko'ra, 3 hududga bo'linadi: aholisining 90%dan ortig'i buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchi Hindixitoy davlatlari; aholisining aksariyati musulmon bo'lgan Indoneziya, Malayziya, Bruney kabi davlatlar hamda Filippinning janubiy qismlari kiruvchi davlatlar; aholisining aksariyati xristianlikning katolik yo'nalishiga e'tiqod qiluvchi Filippinning asosiy qismi va Sharqiy Timor⁸.

Barcha xalqlarda bo'lgani kabi hudud aholisi ham animistik e'tiqod bosqichini o'tganlar. Bu mintaqada milodning ilk asrlaridayoq o'ziga xos taraqqiyot paydo bo'lgan. Hozirgi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tarixini o'rganayotgan olimlarning fikricha, ushbu mintaqa rivojlanishi va gullab-yashnashida Hindiston hamda u yerda mavjud bo'lgan hinduiylik va buddaviylik dinlarining ta'siri juda katta bo'lgan, shu tufayli ular ushbu taraqqiyotni "Hindi-Buddaviy" madaniyat deb nomlaydilar. Buning ham o'ziga xos sabablari mavjud, o'rganilayotgan mintaqa davlatlarining diniy holatiga e'tibor berilsa, ularning barchasida buddaviylik dinining alohida o'rnini mavjud ekanini ko'rish mumkin.

Bu hududga buddaviylik va islom dinlarining kirib kelishi ham hinduiylik dini kabi boshqa o'lkalarda kechgan jarayonlardan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buddaviylik dini miloddan avvalgi II-III asrlarda tinch yo'l bilan

⁶ Huntington S. *The Clash of Civilizations*. – New York: Simon and Schuster, 1996.

⁷ Переяшкин А.В. Религиозный фактор в современной мировой политике. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. Пятигорск – 2015. – С. 43.

⁸ Народы Юго-Восточной Азии. – М.: Наука, 1966. – С. 16.

sayohatchi ruhoniylar va buddaviylar savdogarlar orqali kirib kelgan. Lekin, tub aholi uchun Hind madaniyati yuqori darajadagi madaniyat hisoblangan. Shuning uchun ushbu mintaqada aholisi buddaviylar dinini hinduizm va ruhlarga sig'inish odatlari bilan uyg'unlashtirgan holda qabul qilganlar. Buddaviylar dinini bu mintaqada mavjud bo'lgan hinduizm va boshqa turli dinlarni siqib chiqara olmagan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasiga islom tinch yo'l bilan kirib keldi. Mintaqaning islomlashuvi bir necha o'n yillar, hatto asrlar davomida kechgan bo'lsada, bu mintaqada harbiy harakatlar kuzatilmadi. Ushbu hudud xalifaliklar paydo bo'layotgan davrda arab savdogar aholisi bu yerga kirib kelgan. Islom dini ham Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida keng tarqalish bilan birga u yerda mavjud dinlar ta'sirida rivojlana bordi va vaqtlar o'tishi bilan atrofidagi boshqa dinlarning odatlari bilan sinkretlashuv jarayoni boshlandi, islom dini kirib kelgan vaqtda aholi uni begona bir din sifatida emas, balki o'zlarida avvaldan mavjud e'tiqod sifatida qabul qilganlar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“XX asrda Malayziyada diniy-ijtimoiy va ma'naviy holatning o'ziga xos jihatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda ko'p konfessional mamlakat hisoblangan Malayziyada dinlararo munosabat, diniy islohotchilik harakatlari hamda malay millati rivoji uchun qabul qilingan “Islam hadhari” dasturi tadqiq qilingan.

Bobning *“Malayziyada diniy xilma-xillik va uning jamiyatdagi o'rni”* nomli birinchi paragrafida mamlakat hududida mavjud dinlarning jamiyat hayotiga ta'siri tahlil etilgan.

Malayziya Federatsiyasining multimadaniy shakli tarixiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy va psixologik kontekstdan kelib chiqqan holda namoyon bo'ladi. Albatta, XX asr o'rtalarida Malayziyada etnik tafovutlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, mamlakat fuqarolari bag'rikenglik tamoyillari asosida munosabatga kirishdilar. 1950-1960-yillarda irqiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga sabab bo'luvchi boshqa omillar mavjudligi inkor etilmasa-da, milliy boyluklarni taqsimlashdagi tengsizlik bilan bog'liq sabablar bartaraf etilgan. Inglizlar Malakka yarim oroliga kirib kelgan vaqtda bu hududda yaxlit davlat emas, balki sultonlar tomonidan boshqarilgan malay musulmon knyazliklari mavjud bo'lgan. XX asr o'rtalarida malaylarning siyosiy madaniyati dinga asoslangan vatanparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan edi. 1957-yilda mustaqillikning e'lon qilinishida milliylik masalasida ikki xil yondashuv paydo bo'ldi: madaniy sintez orqali barcha etnik jamoalarning bir millatga birlashishi yoki etnik jamoalar o'rtasidagi hamkorlik asosida ularning madaniy identligi, ya'ni madaniyatlarining o'ziga xos jihatlari saqlab qolish. Malayziya Konstitutsiyasida millatlar tengligi belgilab qo'yilgan, milliy kelib chiqishi bo'yicha biror kimsani haqoratlash taqiqlangan, barcha millatlarning qonuniy tengligini ta'minlash lozimligi belgilangan. Malay tili rasmiy til deb e'lon qilinganiga qaramay, aholi orasida ingliz, xitoy va tamil tillarida so'zlashish, islom dini bilan bir qatorda boshqa dinlar, ya'ni aholining o'zi istagan dinga e'tiqod qilishiga ham ruxsat berilgan. Konstitutsiyaga ko'ra, barcha malaylar musulmon hisoblanadi⁹. Shtatlarning diniy ma'muriyati fuqarolarning diniy tartib-qoidalar bilan birga

⁹ Federal Constitution. Article 160. Published by The Commissioner of Law revision, Malaysia 2010. – P.153.

dunyoviy qonun-qoidalarga amal qilishlarini ham nazorat qiladi, musulmon va nomusulmonlar o'rtasida tuzilgan nikoh davlat tomonidan tan olinmaydi. Barcha diniy tashkilotlarning musulmonlarning o'z aqidalaridan og'ishmasligiga jiddiy e'tibor qaratilgan, agar bu holat kuzatilsa shariat sudlari hukmiga ko'ra, ular sof islom yo'lida qayta tarbiyalanishga yo'naltiriladilar.

Aholining 67 %i islom, 19 %i buddaviylik, konfutsiylik, daosizm, 9 %i xristianlik, 5 %i hinduiylik va sikxiylik dini vakillari hisoblanadi ¹⁰. Malayziyadagi ikkinchi yirik etnik jamoa xan (xitoylar) (19 %)larning aksariyati buddistlar, daochilar va konfutsiylik, oz qismini xristianlar tashkil etadi. Malayziya aholisining 9 %i xristianlik diniga e'tiqod qiladi, ular mamlakatning sharqiy, ya'ni orol qismida istiqomat qiladi. Xristianlarning asosiy qismi Saravak (42,4 %), Sabax (28 %), Labuan (12 %) shtatlari, kam sonli qismi Malayziyaning yarimorol qismida istiqomat qiladi, poytaxt Kuala-Lumpurda 5,5 % xristian istiqomat qiladi ¹¹. Mamlakatda hindlar ham muhim o'ringa ega, ularning aksariyati tamil, panjob va gujaratliklar hisoblanadi. Asosiy qismi hinduiylik va buddavviylik diniga, qolgan qismi esa islom, xristianlik va sikkizm diniga e'tiqod qiladi.

Malayziyaning ko'p asrlik tarixida milliy jamiyatning multi madaniyatga o'zgarish belgilari paydo bo'ldi, bu yerda butun tarixiy davr davomida mahalliy aholining qo'shni xalqlar va mamlakatlar bilan qorishuvi sodir bo'ldi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mamlakatda etnik sabablarga ko'ra zo'ravonlik to'qnashuvlari sodir bo'lmagan.

Bobning ikkinchi paragrafi "*Diniy islohotchilik g'oyalarining paydo bo'lishi hamda rivojlanishi*" deb nomlangan.

So'nggi yillarda AQShning Pew tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan bir qancha so'rovlar Malayziyada din niqobi ostidagi ekstremizmga moyillik kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda. Mutlaq raqamlar hali ham Malayziya musulmonlarining islom haqidagi radikal tushunchalarga umuman jalb qilinmasligini ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi raqamlar Indoneziyadagi shunga o'xshash ko'rsatkichlar bilan solishtirganda yuqori ko'rinadi. Indoneziyadagi holat shuni ko'rsatadiki, Indoneziya aholisining islomga amal qilishi Malayziya aholisining islomga amal qilishidan qaraganda ancha keskinroq. Bu raqamlar aslida bir qancha sharhlovchilar tomonidan malayziyalik musulmonlarning "Iroq va Shom islom davlati (IShID)" kabi terrorchi yashkilotlardan ogohlik sifatida keltirilgan. Ushbu terrorchi tashkilotning faoliyati cho'qqiga chiqqan davrda malayziyaliklarning aksariyati IShIDning O'rta Sharqdagi filiali "Katiba Nusantara" tarkibiga qo'shilganlar.

Islom islohotchilik harakatlari G'arbdagi g'oya va harakatlar ta'siri ostida XIX asr oxiri hamda XX asrning boshiga kelib, avvalo, Singapur, Malayziya va Indoneziyada jonlana boshladi. Keyinchalik ular qatoriga yavaliklar, minangkabau¹² va birmaliklar qo'shildilar. Ular, asosan, islomni zamonaviy fan-texnika yutuqlariga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, diniy e'tiqodga oid asarlar faqat arab tilida emas,

¹⁰ https://ru.qwe.wiki/wiki/Religion_in_Malaysia (murojaat sanasi: 23.02.2023)

¹¹ <https://www.pewresearch.org/religion/2012/12/18/global-religious-landscape-exec/> (murojaat sanasi: 20.02.2023)

¹² Padang tog'lari va G'arbiy va Markaziy Sumatraning qo'shni hududlarida yashovchi xalq. Indoneziyaning boshqa mintaqalarida ham joylashgan.

balki mahalliy tilda ham bo'lishi lozimligiga ko'proq e'tiborni qaratib, mustamlakachilarga qarshi kurash g'oyalari ularning faoliyatlarida deyarli sezilmadi. XX asrdan boshlab ko'pgina musulmon mamlakatlarida yangi tijorat, jinoyat va fuqarolik kodekslari joriy qilindi. Faqat nikoh, ajralish, meros masalalari shar'iy yo'l bilan hal qilinar edi.

Britaniya mustamlakachiligi Malayziyadagi diniy ishlarni boshqarishda yangi muammolarni keltirib chiqardi. 1874-yilgi Pangkor shartnomasi islom va Malay madaniyati sohalari go'yoki sultonlar qo'lida qolgan bo'lsa-da, dinga tajovuz qilgan mustamlakachilik aralashuvi davrini e'lon qildi. 1930-yillarda Kaum Tua – Kaum Muda (Eski fraksiya – Yosh fraksiya) nizosi Malaya bo'ylab qishloqlarni qamrab olganida, bu ichki malayziyaviy diniy mojaro ochiq va keng ko'lamli tus oldi. Kaum Mudani Jamoliddin Afg'oniy (1838-1897), Muhammad Abduh (1849-1905) va Rashid Rizo (1865-1935) bilan bog'liq Qohiradagi Al-Manar maktabi tomonidan yoritilgan soxta salafiy an'alarining tiklanishi ta'siridagi islohotchilar sifatida ko'rish odatiy hol edi.

Kaum Tua g'oliblikni qo'lga kiritganidan so'ng Kaum Muda siyosiy faollikni maqsad qilgan islohotchilik madrasalarini tashkil qilgan holda ta'lim muassasalari bilan shug'ullana boshladi. Masalan, Perak Padang Rengasda Shayx Juned Tola (1897-1948) Yahyaviyya madrasasi va Gunung Semanggol Shayx Abu Bakr al-Bakir (1907-1974) tomonidan asos solingan Ihyoush-sharif instituti keyinchalik mamlakatda "Hizb al-Muslimin" ("*Musulmonlar partiyasi*" – HM) va Butunmalayziya islom partiyasi (*Parti Islam Se-Malaysia* – PAS, *Islamic Party of Malaysia*)ning paydo bo'lishiga zamin yaratgan Butun Malaysiya islom partiyasi (*Parti Islam Se-Tanah Melayu* – PMIP, *Pan-Malayan Islamic Party*) kabi Malay milliy kadrlarining paydo bo'lishiga asos vazifasini o'tadi. O'zining transmilliy ta'lim tarmoqlari orqali PAS soxta salafiylik xarakteriga ega bo'lganini Sayid Qutb (1906-1966)ning revolyutsion g'oyalaridan ta'sirlangan Zulkifl Muhammad (1927-1964) va Yusuf Rava (1922-2000)larning Misrdagi "Musulmon birodarlar" uyushmasi bilan aloqa bog'laganida ko'rish mumkin.

Mustaqillikdan so'ng Malayziyada musulmonlar Abu Hasan Ash'ariy (874-936) asos solgan ash'ariylik ta'limoti va Muhammad ibn Idris Shofe'iy (767-820) asos solgan shofe'iylik mazhabiga ergashdilar. Malay musulmonlari orasida ash'ariylik ta'limoti "Tavhid Sifat 20", ya'ni "Allohning 20" sifati nomi bilan keng tarqalgan.

Islohotchilik chiqishlari diniy-aqidaviy masalalarni qayta ko'rib chiqish va islomga yangicha qarashni targ'ib qilib chiqdi. Odatda, islohotchilik harakatlari an'anaviy islomdagi asosiy ta'limotlarga dunyoviy ta'limotlarni ham ilova qilishdan boshlanadi, buning natijasida hayotdagi ikki soha orasida qat'iy chegara belgilanadi. Bu ikki sohadan birinchisi – dinni o'z ichiga oladigan ma'naviyat, ikkinchisi – siyosat, iqtisod, jamiyat va madaniyatni o'z ichiga oladigan dunyoviy sohadir. Islohotchilikda dunyoviy ishlarning muhimligiga asosiy ahamiyatni qaratish bilan birga, imon, savob tushunchalari hamda ijtihod, ijmo' va tavhid tamoyillari o'ziga xos ravishda talqin qilina boshlandi.

Islohotchilik harakatlari o'zining natijalarini bera boshladi. 50-yillarga kelib

Malayziya mustamlakachilikdan ozod bo'ldi, ammo ular orzu qilganlaridek islom davlati o'rnatilmadi. Yangi ozod bo'lgan mamlakatda ikki xil kayfiyatdagi kishilarning kurashi ketdi: ulardan biri mustamlakachilik asoratlarini tezroq tugatish payida bo'lsalar, ikkinchilari tezroq hokimiyatga erishish fikrida bo'ldilar.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi *“Islom Hadhari” konsepsiyasining mazmun-mohiyati*” deb nomlangan.

Malayziya so'nggi yigirma yil ichida eng zamonaviy texnologiya asosida rivojlanishning yangi bosqichiga kirdi. Bunda islom dini ta'limotini bugungi taraqqiyot bilan uyg'unlashtirishga asoslangan *“Islom Hadhari”* (*“Islam Hadhari”*) konsepsiyasi ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani katta samara bermoqda. XXI asrga kelib mamlakatning mafkuraviy hayotida bosh vazir Abdulla Ahmad Badaviy tomonidan ishlab chiqilgan, 10 ta tamoyildan iborat *“Islam Hadhari”* konsepsiyasi alohida o'rin egalladi.

Konsepsiyada asos qilib olingan tamoyillar so'nggi yillarda nafaqat Malayziya, balki butun musulmon olami to'qnash kelgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning g'oyaviy in'ikosi sifatida namoyon bo'ldi. Bu bilan islomning ekstremizm va terrorizmga aloqasi yo'qligini, aksincha, ekstremizm va terrorizmning asl maqsadi siyosat ekanini isbotlash, shu bilan birga malay jamiyatining ko'p muammolari o'z an'ana va madaniyatlaridan voz kechmagan holda samarali boshqaruv tizimini joriy etish orqali hal etilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

“Islom Hadhari” milliy taraqqiyot va aholi turmush darajasini yuksaltirish masalalarini islom arkonlari bilan uyg'un holda amalga oshirishni e'tibor markazida tutadigan g'oya hamda qarashlar majmuidir. *“Islom Hadhari”* bu maqsadlarga erishish uchun ilm-fanni yuksaltirish, har qaysi inson va butun millatni kamol toptirish, ezgu-qadriyatlarga amal qiladigan, to'g'ri so'z va halol, qat'iyatli, global tahdidlarga munosib javob berishga qodir bo'lgan ma'rifatli, iymon-e'tiqodli insonlarni tarbiyalash uchun tegishli shart-sharoit yaratib berishni eng muhim vazifa, deb hisoblaydi. Buning uchun jadal rivojlanib boradigan iqtisodiyot, moliya va savdo tizimini barpo etish, yaxlit va barqaror taraqqiyotni vujudga keltirish zarur ekanini alohida ta'kidlaydi.

“Islom Hadhari” hayotning barcha sohalarini qamrab olishga qaratilgan davlat konsepsiyasidir. U asosiy e'tiborni Malayziya musulmon jamoasining bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar musobaqasida orqada qolmasligi, raqobatga bardosh bera olishini ta'minlashga qodir bo'lgan iqtisodiyot va sivilizatsiyani rivojlantirish masalalariga qaratadi.

Hozirgi zamonning global tahdidlariga qarshi turishda musulmonlarga kuch-quvvat berish maqsadida ishlab chiqilgan *“Islom Hadhari”* konsepsiyasi Malayziya ma'naviy-ma'rifiy rivoji yangi dasturining hayotga joriy etilishi hozirgi ko'pmillatli va ko'p-konfessiyali jamiyatda turli toifalar o'rtasida tashvish hamda xavotirlarni bartaraf etib, ularning o'zaro hamjihat yashashining mustahkam kafolatini ta'minlovchi hujjat sifatida qaralmoqda.

Dissertatsiyaning **“Globalashuv sharoitida mamlakatda din va davlat munosabatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida dinlar va konfessiyalararo

munosabat, mamlakatda mavjud dinlarning huquqiy mavqeyi dinshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi “*Din va davlatning o‘zaro munosabati*” deb nomlanadi.

2021-yildagi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlariga ko‘ra, Malayziya aholisining 63,7 %ini musulmonlar; 17,7 %ini buddizm; 9,4 %ini xristianlik; 6,0 %ini hinduiylik; 3,2 %ini konfutsiylik, daosizm yoki boshqa an‘anaviy xitoy falsafa va dinlari; animistlar, sikxlar, Iyegova shohidlari, Iso Masihning so‘nggi kun avliyolari cherkovi (Iso Masih cherkovi) va bahoiylar tashkil etadi. Musulmonlar sunniylik yo‘nalishining shofe‘iy mazhabida hisoblanadi. Qishloq joylari, ayniqsa, yarim orolning sharqiy qirg‘og‘ida musulmonlar, Borneo orolidagi Sabax va Saravak shtatlarida esa xristianlikka e‘tiqod qiluvchi aholining uchdan ikki qismi istiqomat qiladi. Etnik xitoylik malayziyaliklar, asosan, buddaviylar va ular g‘arbiy qirg‘oq shtatlari, ayniqsa, Kedax, Penang, Perak, Selangor, Melakka va Johorda istiqomat qiladilar. Kedax va Kelantanning shimoliy qismlarida ozchilikni tashkil etuvchi Tailand Buddaviylari jamoasi mavjud¹³.

Konstitutsiya bo‘yicha Malayziya dunyoviy davlat hisoblangan holda davlat dinini islom deb e‘lon qilgan. Islom dini malay jamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, u “Federatsiya dini” deb tan olinadi. Davlatning rasmiy mafkurasi “Rukunegara” (*Rukun Negara yoki Rukunegara*), ya‘ni milliy manfaatni jamoalar manfaatidan ustun qo‘yuvchi yoki cheklangan siyosiy plyuralizm bo‘lsada, ammo tadqiqotchilar din, irq va millat (*Agama, bangsa dan negara*) shiori ham norasmiy mafkurani tashkil etadi. Mazkur mafkuralar, odatda, malay tilini kuchaytirishga yo‘naltirilgan konservativ siyosiy kuchlar tomonidan ilgari surilgan. “Rukunegara” (davlat asoslari) 5 tamoyilni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ulardan birinchisi xudoga ishonish va diniy bag‘rikenglik bo‘lib, islom davlat dini sifatida e‘tirof etilgan, keyingi tamoyillar qirol va davlatga sodiqlik, konstitutsiyani hurmat qilish, qonunlarga rioya qilish, axloq normalariga rioya etgan holda o‘zini munosib tutishdan iborat¹⁴.

Malayziyada asosiy uchta eng katta diniy guruhlarining bayramlarini nishonlash joriy etilgan. Hukumat tomonidan dinlararo guruh va komissiyalar tuzilgan bo‘lib, mamlakatdagi diniy totuvlik va bag‘rikenglik asosiy maqsad deb amal qilinadi. Malay siyosatchilari diniy uyg‘unlikni eng muhim ustuvor jihatlardan biri hisoblaydilar.

Mamlakatda noislomiy konfessiyalararo tashkilotlarning mavjud ekanini ta‘kidlash lozim. Xususan, Buddizm, xristianlik, hinduiylik, sikxiylik va daosizm bo‘yicha Malayziya maslahat kengashi (*Majlis Perundingan Malaysia Agama Buddha, Kristian, Hindu, Sikh dan Tao – MCCBCHST*), Malayziya Cherkovlari kengashi (*Council of Churches of Malaysia (CCM)*) va Malayziya xristian Federatsiyasi (*Christian Federation of Malaysia*) kabi noislomiy konfessiyalararo tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

¹³ <https://www.pewresearch.org/religion/2012/12/18/global-religious-landscape-exec/> (murojaat sanasi: 02.02.2023)

¹⁴ Мусаев А. Формирование и деятельность международных финансовых центров Малайзии // Academy, 2016. – № 11 (14). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-i-deyatelnost-mezhdunarodnyh-finansovyh-tsentrov-malayzii> (дата обращения: 11.12.2022).

XX asrning 60-80-yillari o'rtalarida Malayziya hukumatining xristianlik diniga bo'lgan munosabati vaqti-vaqti bilan kuchaytirildi: chet ellik missionerlarga kirish ruxsatnomalari berilmadi yoki muddati uzaytirilmadi, cherkovlar qurilishi taqiqlandi, boshqa din vakillari orasida xristianlikka oid adabiyotlar tarqatilishi cheklandi yoki taqiqlandi, nasroniy missiyalari tomonidan tashkil etilgan maktablar milliylashtirildi. Nasroniylikka qarshi kayfiyat, ayniqsa, Sabahda kuchli edi, uning rahbari Tun Mustafu Horun XX asrning 60-70-yillar o'rtalarida aksariyat nasroniy missionerlari va ruhoniylarini quvib chiqargan hamda majburiy islomlashtirishni amalga oshirgan.

Din bilan bog'liq asosiy qoidalar Malayziya Konstitutsiyasida belgilangan bo'lib, u mamlakatning barcha milliy jamoalari huquqlarini kafolatlaydi. Islom Federatsiyaning rasmiy dini hisoblanadi, lekin uning istalgan qismida boshqa dinlarga "tinchlik va hamjihatlikda amal qilishlari" mumkin (Konstitutsiyaning 3-moddasi 1-bandi)¹⁵. Xristian konfessiyalarining faoliyati maxsus huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi, masalan, 1955-yildagi Metodistlar cherkovi to'g'risidagi qonun, 1971-yildagi G'arbiy Malayziya yeparxiyasining sinodi to'g'risidagi qonun va boshqalar. Parlament, shuningdek, katolik yepiskoplarini tayinlashda maxsus aktlar qabul qiladi.

Uchinchi bobning "*Diniy ta'lim tizimining xususiyatlari*" nomli ikkinchi paragrafida ta'lim tizimida din hamda diniy ta'limning o'rnini tahlil etilgan.

Malayziya milliy ta'lim tizimi rivojining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va xalqaro omillari bilan bir qatorda diniy omil inobatga olingan¹⁶. Unga ko'ra, Malayziya fuqarolari zarur bilim va ko'nikmalarga ega, yetuk tarbiyali, mas'uliyatli va yuqori natijalarga erishishga qodir bo'lgan shaxslar, deya e'tirof etilgan hamda ular oilaviy, jamiyat va milliy qadriyatlarni tiklash hamda uyg'unlikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shishga qodir bo'lishlari lozimligi ta'kidlangan. Aynan shu kabi fuqarolarni tarbiyalashda Malayziya ta'limi Yaratganga qat'iy ishonch va unga bo'lgan sadoqatga asoslangan.

Yillar davomida Malayziyada islom ta'limi tizimi rivojlana boshladi, lekin uning aynan qaysi davrdan boshlab rivojlangani haqida yakdil xulosa mavjud emas, balki shtatlar tomonidan keltirilgan turli ma'lumotlar bor. Masalan, Selangor maktabi (1894-yil) inspektori Frenk U.Xeyns tomonidan yozib qoldirilgan qaydlarga asosan Selangor shtatida islom diniga oid tadqiqotlar XIX asr oxirlarida boshlangan, hukumat nazoratida bir yilda 17 ta guruhda Qur'on darslari o'qitilgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, islom ta'limi Selangorning beshinchi sultoni Sulaymon Alouddin Shox (1898-1938) davrida rivojlangani, aynan shu davrda diniy maktablar sulton tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlangani va rivojlangani ta'kidlangan. Kelantan shtatida esa islom ta'limi rivoji bo'yicha mutaxassislar ikki qismga bo'linadi, birinchi guruh uning paydo bo'lishini taxminan XVI asr bilan bog'lasa, ikkinchi guruh arxeologik qazishmalar natijasida Kelantanda topilgan oltin tangaga asoslanib XII asr bilan bog'laydilar. Topilgan oltin tangada arab yozuvi bilan "577"

15 Article 11 (4): 'State law and in respect of the Federal Territories of Kuala Lumpur, Labuan and Putrajaya, federal law may control or restrict the propagation of any religious doctrine or belief among persons professing the religion of Islam.

16 https://www.globaldialog.ru/countries/malaysia/higher_education/ (murojaat sanasi: 28.10.2022)

raqami hamda “al-Julus Kelantan” – “Kelantan hukumati” deb yozilgan, 577-hijriy sana, milodiy 1180-yilga to‘g‘ri keladi¹⁷.

XIX asrning oxiriga kelib butun Malay yarim oroli, ayniqsa, Kelantan, Kedax, Perak va Penang orollarida hujra hamda madrasalar paydo bo‘ldi. Kelantan shtatidagi hujra ta‘limi XIX asrdan rivojlana boshlangan va XX asrda to‘liq cho‘qqiga chiqqan. Taxminan 1900-yillarda hujra tizimi Britaniya mustamlakachilari tomonidan moliyalashtirilgan milliy ta‘lim tizimi bilan raqobatlasha boshladi. Hujra tizimining Kelantanda an‘anaviy ta‘lim sifatida paydo bo‘lishi va xalq orasida ommalashishiga asosiy sabab, masjidlarda islom diniga oid ta‘limning berilishi, buning natijasida esa aholida bu dinga bo‘lgan qiziqishning ortishi bilan izohlanadi. Hujra ta‘lim tizimi XIX asr boshida Patani ulamolari tomonidan ishlab chiqilgan. Undan keyin esa pondok ta‘lim tizimi rivojlandi hamda o‘z davrining zamonaviy islom ta‘lim tizimiga aylandi. Malayziyada yuqori darajadagi rasmiy islom ta‘limi 1955-yil Selangorda Malay islom kollejining tashkil etilishidan boshlangan, 1971-yildan boshlab ushbu kollej Malayziya ta‘lim vazirligi tasarrufiga o‘tgan, kollej bitiruvchilari Malayziya milliy universitetining Islomshunoslik fakultetining islom huquqi, usulud-din, arab tili va islom sivilizatsiyasi sohalarida o‘qishlarini davom ettirishlari mumkin.

Federal hukumat tomonidan Milliy ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich islom ta‘limining kiritilishi natijasida 1961-yildagi Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonunga asoslanib islom dini bilan bog‘liq darslar ham boshlang‘ich, ham o‘rta maktab o‘quv dasturi tarkibiga kiritildi. 1974-yilga kelib boshlang‘ich islom ta‘limi maktablarining nazorati shtat rahbariyati nazoratidan to‘liq federal hukumat nazoratiga o‘tkazildi. Xuddi shu yili Ta‘lim vazirligi islom ta‘limi mazmuni ustidan nazoratni kengaytirib, darsliklar byurosini tashkil etib, maktablarda faqat vazirlik ruxsat bergan mualliflar tomonidan yozilgan darsliklardan foydalanishni ta‘minladi.

1973-yil Ta‘lim vazirligida federal darajada islom ta‘limini nazorat qiluvchi alohida diniy ta‘lim bo‘limi (*Bahagian Pelajaran Agama*) tashkil etildi. 1983-yilda ushbu bo‘lim Islom ta‘limi bo‘limi (*Bahagian Pendidikan Islamic*)ga aylantirildi, bo‘lim zimmasiga axloqiy tarbiyaga mas‘ullikni olgani sababli, 1995-yilda Islom va axloqiy tarbiya bo‘limi (*Bahagian Pendidikan Islamic dan Moral*)ga aylantirildi. Yangi bo‘limning asosiy vazifasi sifatida diniy maktablarning milliy ta‘lim tizimiga integratsiyalashishiga ko‘maklashish, undan tashqari diniy ta‘lim tizimi siyosati, ularning o‘quv dasturlari, o‘qituvchilarni ta‘limdan uzilmagan holda islomshunoslik va arab tiliga o‘rgatish, diniy targ‘ibot va islom ta‘limi uchun rahbar kadrlarni tayyorlash, shuningdek, milliy va davlat o‘rta diniy maktablar standartlarini oshirish belgilab berilgan.

O‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish natijasida milliy o‘rta diniy maktab o‘quvchilariga gumanitar fanlar/san‘at va din; fan va din; kasbiy-texnik ta‘lim va din kabi uch yo‘nalishdan birin tanlash ixtiyori berildi. Oddiy o‘rta ta‘limda tanlov fanlari sifatida o‘qitiladigan Qur‘on va Sunnatni o‘rganish, islom shariati va oliy

¹⁷ Mohd Roslan Mohd Nor, Ahmad Zaki Berahim Ibrahim, Faisal Ahmad Faisal Abdul Hamid, Hamidah Jalani, Mhd Faizal Mhd Ramli, Abdullah Yusof, Asyiqin Abdul Halim and Faizuri Abdul Latif. Islamic Educational System in Kelantan, Malaysia: Traditional and Modern Approaches. Middle East Journal of Scientific Research, 2012. – № 11 (9). –P. 1238.

arab tili fanlari barcha yo‘nalishlarda asosiy diniy fanlar sirasiga kiradi. 2000-yildan boshlab diniy ta‘lim muassasalarida yuqori natijalarga ega o‘quvchilar Malayziya Oliy diniy sertifikatini (*STAM: Sijil Tinggi Agama Malaysia*) asosida o‘qishlarini davom ettirishlari mumkin. Maktablardagi arab tili darslari al-Azhar universitetining Qohiradagi Islom ilmlari instituti dasturlari bilan moslashtirilgan holda olib boriladi, sertifikat esa talabalarga Malayziya yoki xorijiy ta‘lim muassasalarida o‘qishni davom ettirish imkonini beradi. Malayziya Oliy diniy sertifikatini davlat o‘rta diniy maktablari va jamoat diniy maktablari o‘quvchilariga ham taklif etiladi. Barcha diniy maktablar o‘quv dasturi yangilanib, ular tarkibiga “Islom hadhari” konsepsiyasi tamoyillari kiritila boshlandi.

1989-yilda quyidagi milliy ta‘lim falsafasi joriy etildi: “Malayziyada ta‘lim – bu Allohga qat‘iy e‘tiqod va sadoqat asosida aqliy, ma‘naviy, hissiy va jismoniy yetuk salohiyatli shaxslarni umumiy holda tarbiyalashga qaratilgan doimiy sa‘y-harakat. Ushbu harakatlar Malayziya fuqarolarini yetuk bilimli va malakali, yuksak axloqiy talablarga javob beradigan, mas‘uliyatli va shaxsiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishiga qodir bo‘lgan, shuningdek, oila, jamiyat va millat totuvligi hamda rivoji yo‘lida o‘z hissasini qo‘shishga qodir qiluvchi sifatida tarbiya qilishga qaratilgan”¹⁸. Milliy ta‘lim falsafasi ham “Intellectual, ma‘naviy, hissiy va jismoniy jihatdan barqaror hamda barkamol insonlarni tarbiyalash uchun aholining salohiyatini yaxlit va kompleks rivojlantirish”ga chaqiradi.

Musulmon jamoalari dualistik ta‘lim tizimi muammolarini hal etishlarini kutib o‘tirmay o‘z harakatlarini boshlaganlar. Xususan, 1980-yillarda Malayziya musulmon yoshlari harakati (*ABIM*), zamonaviy islomiy maktabgacha ta‘lim muassasalari (*TASKI*), keyinchalik islom boshlang‘ich maktablari tashkil etildi. Bungacha barcha maktabgacha ta‘lim muassasalari cherkovlarda xristian missionerlari qo‘l ostida bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan xususiy tijorat tashkilotlari xususiy tartibdagi islom bog‘chalarini tashkil etdilar. Bu turdagi maktabgacha ta‘lim muassasalarining ochilishi malay tilida olib boriladigan fundamental bilimlar sirasiga kiruvchi o‘qish, yozish, arifmetika fanlari bilan tenglikda islomning qadriyat va an‘analarini farzandlariga bolalikdan singdirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi “*Malayziyada diniy-dunyoviy muvozanatni saqlashda davlatning o‘rni*” deb nomlangan.

Malayziya Konstitutsiyasining 3-moddasida islom davlat dini sifatida belgilab berilgan. Malayziya oliy hukmdori bir vaqtning o‘zida Butunmalayziya hamda federal hudud shtatlari Malakka, Pinang, Saravak va Sabax musulmonlari rahbari, boshqa shtat sultonlari o‘z hudud musulmonlariga rahbar hisoblanadilar. Bundan tashqari, Malayziya shtatlari va hududlarida zamonaviy sud tizimi bilan bir qatorda musulmonlar o‘rtasida fuqarolik hamda jinoiy ishlarning ayrim toifalarini ko‘rib chiqadigan shariat sudlari ham faoliyat yuritadi¹⁹. Shariat sudlari shtat rahbarlari

¹⁸ Laws of Malaysia. Education Act 1996. Act 550. -P.15-16.

¹⁹ Malaysia Religion // <https://www.globalsecurity.org/military/world/malaysia/religion.html> (murojaat sanasi: 21.02.2023.)

tomonidan nazorat qilinuvchi uch bosqichlik tizimdan iborat: shariat sudi, shariat oliy sudi, apellyatsiya bo'yicha shariat sudi.

Malayziyada rasman qirqdan ortiq rasmiy ro'yxatdan o'tgan siyosiy partiyalar mavjud. Partiyalar orasida Butunmalayziya islom partiyasi (*Parti Islam Se-Malaysia*) ham mavjud. Demak, Malayziyada hukumat diniy mafkura asosida siyosiy partiyalarga faoliyat yuritishga to'sqinlik qilmaydi. Milliy front, "yagona va uyg'un millat" barpo etish, vijdon erkinligi tamoyillariga amal qilgan holda islomning mavqeyini rasmiy din sifatida mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan. Shu o'rinda, rasmiy va norasmiy mavqega ega bo'lgan islomiy diniy tashkilotlar esa siyosiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Mamlakatda radikal g'oyalar ta'sirini bostirish, ularni tartibga solish hamda islom dini taraqqiyoti va rivojiga mos ravishda Malayziya hukumati tomonidan *BAHEIS* hokimiyati hamda rolini o'z zimmasiga olgan holda 1997-yil 1-yanvarda Mahathir Muhammad tashabbusi bilan mintaqaviy bo'linmalarga ega Malayziya Islom taraqqiyoti departamenti (*Jabatan Kemajuan Islam Malaysia – JAKIM*) va Selangor shtati islom diniy departamenti (*Jabatan Agama Islam Selangor – JAIS*) tashkil etildi hamda ularga fatvo chiqarish huquqi berildi. JAKIMning tashkil etilishi Malayziyani ishlab chiqarish va halol mahsulotlarni sertifikatlash sohasida xalqaro (islomiy) bozorga olib kirishga hissa qo'shishi kerak edi. To'rtinchi "taraqqiyot rejasi"da islom dinining mamlakat taraqqiyotidagi yetakchi roli e'lon qilingan. Shuningdek, Malayziya JAKIM boshchiligida islomiy moliyalashtirish va mahsulotlarni "halol" belgisi ostida standartlashtirish yo'lida rivojlana boshladi. Uning vakolati kengayib, diniy maktablar tizimini ta'minlash, nikohni qayd etish va "axloq politsiyasi" funksiyalarini o'z ichiga oldi.

Hukumat vakillari sunniylik yo'nalishi, xususan, shofeiylilik mazhabini mamlakatda yagona rasmiy yo'nalish sifatida tan olinishi lozimligi haqidagi taklif bilan chiqqanlar. Malayziya islom taraqqiyot departamenti saytining ma'lumotlariga ko'ra, 56 turdagi ta'limot, xususan, shialik ta'limotini targ'ib etish taqiqlangan. Hukumatning shialarga qarshi harakatlarining qonuniy asosi 1960-yildagi Ichki xavfsizlik to'g'risidagi qonunda o'z ifodasini topgan. Malayziya islom taraqqiyoti departamenti huzuridagi Milliy fatvo kengashining 1996-yil 5-maydagi qaroriga ko'ra, shialik e'tiqod qilinishi taqiqlanmasa-da targ'iboti taqiqlangan hamda islomning asl ta'limotidan og'gan yo'nalishlar qatoriga kiritilgan. Malayziya Konstitutsiyasiga ko'ra, milliylik ham kishining e'tiqodidan kelib chiqqan holda belgilanadi, ya'ni malay sifatida tan olinish uchun shaxs islom diniga e'tiqod qilishi va musulmon bo'lishi lozim.

Malayziyaning davlat sifatida o'ziga xosligi ancha harakatchan va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Aholisining aksariyatini musumonlar tashkil etuvchi davlat sifatida uch ko'rinishda namoyon bo'ladi – faol davlat, mo'tadil islom mamlakati va sunniylik yo'nalishidagi davlat. Bu ko'rinishlarning har biri uchun o'ziga xoslikni yaratishga turtki, birinchi navbatda, ichki siyosiy vaziyat va ko'pchilik musulmonlarning ovozlari uchun kurashdir.

XULOSA

Dissertatsiyada olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Jahon tarixida diniy omilning kuchayishi nafaqat globallashuv jarayoni, balki xalqaro munosabatlarning ko'p asrlik sekulyarizatsiya jarayoni bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, u shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi, siyosiy tizimida kelishuvga erishishdagi muhim vosita, hokimiyatga intilish manbai, davlat boshqaruvida asosiy g'oya, insonlarni birlashtiruvchi yoki ixtiloflarga sabab bo'luvchi omil sifatida namoyon bo'lgan. O'tish davrining turli bosqichlarida, davlatlar kuchi zaiflashgan vaqtda diniy omil ijtimoiy munosabatlarning keskinlashuvi, konfessiyalar va millatlararo nizolarning kelib chiqishiga ham sababchi bo'lgan. Konfessional qarama-qarshiliklar nafaqat xalqaro, balki harbiy nizolarning ham kelib chiqishiga sabab bo'lgan. XX-XXI asrga kelib esa diniy omildan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishning asosiy vositasi sifatida foydalanilmoqda.

2. XX asrda Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tarixini o'rganayotgan olimlarning fikricha, ushbu mintaqa rivojlanishida hinduiylik va buddaviylik dinlarining ta'siri juda katta bo'lgani sababli ushbu taraqqiyot "Hindi-Buddaviy" madaniyati deb nomlangan. Hinduiylikni qabul qilgan hukmdorlar o'zlarini Shiva, Vishnu yoki Xarixara xudolariga o'xshatib ilohiylashtirilgan. Natijada ularning yangi ismlari *Isanavarman (Shiva tomonidan yaxshi ko'rilgan)*, *Indravarman (Indra tomonidan yaxshi ko'rilgan)*, *Djayyavarman (G'alaba suyuklisi)* kabi nomlar bilan tilga olingan. Hukmdorlar ibodatxonalarga tenglashtirilgan imoratlar qurdirish uchun mintaqaga braxmanlar hamda maxsus mutaxassislarni taklif qilishi oqibatida "Hindi-Buddaviy" madaniyati tili bo'lgan – sanskrit tili saroylarning muqaddas tiliga aylangan. Hind yozuvlari esa mahalliy tillardagi badiiy asarlar uchun soddalashtirilgan. Mintaqada davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishida hindlar ta'siri bilan birga musulmon vakillari faoliyati ham ko'zga tashlanadi. Janubi-Sharqiy Osiyo jamiyatida mahalliy dinlar hayotida diniy bag'rikenglik an'analari mustahkam o'rinishgani hamda turli diniy bayramlarning milliy bayram sifatida nishonlanishi diniy totuvlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

3. Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida milliy va diniy bag'rikenglik ta'minlangan mamlakatlardan biri bo'lgan Malayziya konstitutsiyasida ham millatlar tengligi ta'minlanib, milliy kelib chiqishi bo'yicha biror kimsani haqoratlash taqiqlangan. Malay tili rasmiy til deb e'lon qilinganiga qaramay, aholi orasida ingliz, xitoy va tamil tillarida so'zlashishga ruxsat berilgan. 1957-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiq, din davlatdan ajratilmagan, islom dinining sunniylik yo'nalishi mamlakatning rasmiy dini deb e'lon qilingan bo'lsada, boshqa dinlar, ya'ni aholi o'zi istagan dinga e'tiqod qilishga ham imkoniyat yaratilgan. Shunga qaramasdan, mamlakat qiroli malay millati va musulmonlar orasidan saylanishi belgilangan. Konstitutsiyaga ko'ra, barcha malaylar musulmon hisoblanishi ta'kidlangan.

4. XX asrning oxiriga kelib, Malayziyada alohida islomiy harakatlar jamiyat va davlat hayotida yetakchilik qilib, islohotchilik chiqishlari diniy-aqidaviy

masalalarni qayta ko'rib chiqish va islomga yangicha qarashni targ'ib qilgan. Islohotchilik harakatlari an'anaviy islomdagi asosiy ta'limotlarga dunyoviy ta'limotlarni ham ilova qilishdan boshlangan. Natijada, jamiyat hayotida ikki soha – dini o'z ichiga oladigan ma'naviyat hamda siyosat, iqtisod, jamiyat va madaniyatni o'z tarkibiga olgan dunyoviy soha orasida qat'iy chegara belgilangan. Shuningdek, mamlakatda kuzatilgan islom niqobi ostidagi ekstremistik harakatlarga qarshi kurashish maqsadida hukumat tomonidan din ishlari bo'yicha maxsus komissiyasi tashkil etilib, unga islom dini targ'ibotini qat'iy nazoratga olish yuklatilgan. Mamlakat bosh vaziri Abdulla Ahmad Badaviy davrida ilgari surilgan 10 ta tamoyildan iborat "Islam Hadhari" konsepsiyasi nafaqat Malayziya, balki butun musulmon olami to'qnash kelgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning g'oyaviy in'ikosi sifatida namoyon bo'lgan. Bu bilan malay jamiyatining ko'p muammolari o'z an'ana va madaniyatlaridan voz kechmagan holda samarali boshqaruv tizimini joriy etish orqali hal etilishi mumkinligi ta'kidlangan.

5. *Malayziyaning XXI asrda eng zamonaviy texnologiya asosida rivojlanishning yangi bosqichga ko'tarilishida* bosh vazir Abdulla Ahmad Badaviy tomonidan ilgari surilgan, Malay birlashgan milliy tashkiloti (*United Malays national organisation*)ning 2004-yil 23-sentabrdagi 55-yig'ilishida milliy taraqqiyot va aholi turmush darajasini yuksaltirish masalalarini islom arkonlari bilan uyg'un holda amalga oshirish belgilangan "Islam Hadhari" konsepsiyasi qabul qilinishi alohida ahamiyatga ega. Mazkur konsepsiyada *islom dini ta'limotini bugungi taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish*, dinning jamiyatda tutgan o'rnini to'g'ri belgilash, din va davlat munosabatlarini tartibga solish maqsad qilingan bo'lib, unga erishish uchun ilm-fanni yuksaltirish, har qaysi inson va butun millatni kamol toptirish, ezgu-qadriyatlarga amal qiladigan, to'g'ri so'z va halol, qat'iyatli, global tahdidlarga munosib javob berishga qodir bo'lgan ma'rifatli, iymon-e'tiqodli insonlarni tarbiyalash uchun tegishli shart-sharoit yaratib berishni eng muhim vazifa, deb hisoblagan.

6. Malayziya Konstitusiyasi mamlakatning fuqarolar uchun vijdon erkinligini kafolatlagan bo'lsa-da, ko'pchilikni tashkil etuvchi musulmonlarga o'z dinini boshqa millat va elat vakillari o'rtasida targ'ib etishga taqiq qo'yimagan. Lekin musulmonlar orasida boshqa diniy ta'limotlarni targ'ib qilishni taqiqlagan. Musulmon bo'lmaganlar orasida esa missionerlik va prozelitizm g'oyalariga erkinlik berilgan. Musulmonlarga o'z dinlaridan voz kechishga ma'lum cheklavlarni kiritilgan. Malayziya hukumati tomonidan dinlararo guruh va komissiyalar tuzilgan bo'lib, ularning asosiy maqsad sifatida mamlakatdagi diniy totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash belgilangan. Shu bilan birga mamlakat qonunlarida ateist va shia guruhlari, Ahmadiya va "Al-Arqam" harakati faoliyati rasman ta'qiqlangan.

7. Malayziya milliy ta'lim tizimi rivojida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, shaxsiy va xalqaro omillar bilan bir qatorda diniy omil ham inobatga olingan. Malayziyaning boshlang'ich va o'rta islomiy ta'lim tizimi Federal diniy maktablar (*Sekolah Agama Persekutuan va Sekolah Kebangsaan Agama*), shtat rahbariyati diniy maktablari (*Sekolah Agama Negeri*), islom diniy Kengashi qoshidagi maktablar, jamoat diniy maktablari (*Sekolah Agama Rakyat*) va xususiy diniy maktablar (*Sekolah Agama*

Swasta) kabi 5 turga ajratilgan. Jamoat va xususiy diniy maktablar mustaqil hisoblansada, bitiruvchilari rasmiy oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun milliy o‘quv dasturlaridan foydalangan holda ta’lim beriladi. Federal hukumat tomonidan Milliy ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich islom ta’limining kiritilishi natijasida 1961-yildagi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunga asoslanib islom dini bilan bog‘liq darslar ham boshlang‘ich, ham o‘rta maktab o‘quv dasturi tarkibiga kiritilgan. 1974-yilga kelib boshlang‘ich islom ta’limi maktablarining nazorati shtat rahbariyati nazoratidan to‘liq federal hukumat nazoratiga o‘tkazilgan va ta’lim vazirligining islom ta’limi mazmuni ustidan nazorat kengaytirildi.

8. Malayziyada 1970-yilda tashkil etilgan, siyosiy mafkuraning bir qismiga aylangan davlat ta’limoti – (davlat asoslari) 5 tamoyilni o‘z ichiga olib, ular xudoga ishonish va diniy bag‘rikenglik, islomni davlat dini sifatida e’tirof etish, qirol va davlatga sodiqlik, konstitutsiyani hurmat qilish, axloq normalariga rioya etgan holda o‘zini munosib tutishdan iborat. Ushbu mafkuraning asosiy maqsadi kambag‘allikni bartaraf etish va barcha millat vakillarining iqtisodiy holatini tenglashtirishga qaratilgan yagona malay millatini tarbiyalash hamda yangi iqtisodiy siyosatni shakllantirishdan iborat. Bu boradagi ishlar Islom taraqqiyoti Malayziya departamenti (*Jabatan Kemajuan Islam Malaysia – JAKIM*) va Selangor shtati islom diniy departamenti (*Jabatan Agama Islam Selangor – JAIS*) tomonidan tartibga solinadi. Shuningdek, ushbu tashkilotlarga diniy-ijtimoiy masalalarda fatvo chiqarish huquqi berilgan.

Tadqiqot jarayonida olingan natija va xulosalardan kelib chiqib quyidagi taklif hamda tavsiyalar ilgari surildi:

1. XX-XXI asr Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida din omilining o‘rni alohida ahamiyat kasb etishini inobatga olib, dinshunos va islomshunos mutaxassislar uchun “XX-XXI asr Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi taraqqiyotida din omili (Malayziya misolida)” nomli ilmiy monografiya hamda turkum risolalar nashr etish.

2. Zamonaviy musulmon jamiyatida diniy bag‘rikenglikni ta’minlash va mutaassiblikning oldini olish jamiyat farovonligining muhim sharti bo‘lgani bois O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus diniy bilim yurtlarida mavjud “Davlat va din munosabatlari” hamda “Islom va hozirgi zamon” o‘quv fanlari dasturiga “Malayziya ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida din omili” nomli mavzuni kiritish maqsadga muvofiq.

3. Diniy bag‘rikenglik masalalari bo‘yicha O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida Malayziya xalqaro islom universiteti va Malayziya milliy universiteti bilan hamkorlikda “Zamonaviy jamiyat rivojida islom omili” nomli xalqaro konferensiya o‘tkazish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.35/30.12.2019.IsI/Tar/F.57.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
МЕЖДУНАРОДНОЙ ИСЛАМСКОЙ АКАДЕМИИ УЗБЕКИСТАНА**

МЕЖДУНАРОДНАЯ ИСЛАМСКАЯ АКАДЕМИЯ УЗБЕКИСТАНА

ТУРДИЕВА ДИЛАФРУЗ МАХМУДЖАНОВНА

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РЕЛИГИОЗНОГО ФАКТОРА В
ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ МАЛАЙЗИИ В XX-XXI
ВЕКАХ**

07.00.04 – Религиоведение

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ИСТОРИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за № В2020.2.PhD/Tar47

Диссертация выполнена в Международной исламской академии Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.iiau.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Ёвкочев Шухрат Акмалевич
доктор политических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мадаева Шахноза Омонуллаевна,
доктор философских наук, профессор
Тураев Бахтиёр Оманович,
доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 при Международной исламской академии Узбекистана (Адрес: 100011, г. Ташкент, ул. А.Кадыри, 11, Тел: (99871) 244-00-56; факс: (99871) 244-00-65; e-mail: info@iiau.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Международной исламской академии Узбекистана (зарегистрирована за № 128). (Адрес: 100011, город Ташкент, улица А. Кадыри, 11. Тел.: (99871) 244-00-56), Факс: (99871) 244-00-65, e-mail: info@iiau.uz).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2023 года
(Реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2023 года)

Д.Р.Махсудов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

С.А.Рустамий

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

З.М.Исламов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость темы диссертации. В настоящее время возрастает влияние религиозного фактора на развитие стран всего мира, формирование отношений государства и общества, а также общественно-политических процессов. Мы наблюдаем эти процессы в Африке и Евразии. В частности, они наблюдаются в регионе Юго-Восточной Азии – быстро развивающихся мусульманских странах. Явным примером этому может послужить Малайзия. Её уникальность заключается в той важной роли, которую играет ислам в формировании общественно-политических отношений в этой стране. В Конституции страны (*Perlembagaan Malaysia*) исламу присвоен статус официальной религии, и каждая сфера жизни общества регулируется исламскими принципами. В условиях современной глобализации уникальный опыт Малайзии в обеспечении межконфессионального согласия и межэтнического равенства приобретает все большее значение.

В научных центрах мира проводится ряд исследований, посвященных анализу таких вопросов, как фактор религии во внутренней и внешней политике Малайзии, тенденции развития отношений государства и религии, влияние религии на государственный строй и управление. Исследуются роль и значение религии как важного фактора в культурной и религиозной толерантности Малайзии, этнический и культурный плюрализм, законодательство и демократия в поликонфессиональном обществе, роль ислама в различных сферах жизни общества. В стране уделяется особое внимание анализу роли религий и их влияния на общественно-политическую жизнь.

Большое значение в обновляющемся Узбекистане имеют вопросы поддержания религиозно-светского баланса, обеспечения приоритета принципа толерантности и межнационального согласия. Малайзийская Федерация, как и несколько других стран, частично пересекла этот путь. Поэтому опыт Малайзии в этом направлении чрезвычайно важен для Узбекистана. На протяжении веков на территории Узбекистана представители разных религий и национальностей жили в гармонии, уважительно относились к своим верованиям, религиозным традициям, обрядам. В многоконфессиональной Малайзии также существует необходимость вовлечения в сферу исследований работ, проводимых в рамках регулирования отношений государства и религии, важности фактора религии в обеспечении атмосферы межрелигиозной толерантности в обществе.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, поставленных в постановлениях ПФ-4947 Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», постановлении № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 2 августа 2017 года № 572 «Об организации деятельности Центра исламской

цивилизации в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», постановлении № 466 от 22 июня 2018 года «О мерах по организации и обеспечению деятельности Международной исламской академии Узбекистана» и других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и технологии Республики. Исследование проводится в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии Республики I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурно-духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического состояния и пути их реализации».

Уровень изученности проблемы. Исследования, проводимые в рамках выбранной проблемы, исходя из их содержания, можно разделить на несколько групп:

в первую группу вошли восточные и западные ученые, глубоко проанализировавшие вопросы религиозной терпимости, государственно-религиозных и межконфессиональных отношений в регионе Юго-Восточной Азии А.Касими́на, А.Абдул-Ха́мида, Бу́винич, Х.Зака́рия, Х.Че, Х.Ланггу́лунг, М.Шухайми, И.Завави, М.Нурхафи́лах, А.Самиана, М.Махатхи́ра, М.Дели, М.Рослана, А.Заки Ибрагима, А.Фейсала, Дж.Ха́мида, М.Файзала, А.Юсуфа, А.Абдул Халима, А. Файзури, М. Муслехуддина, Р.Хашима, Б.Шамсула Амри¹;

во второй группе представлены история региона и религий в нем, его влияние на сознание людей, сферы общества, отношение к религиям в Малайзии в разные периоды, особенно в колониальный период, влияние и развитие религий на традиции и образ жизни, анализ политических и религиозных процессов, происходивших в регионах Ближнего Востока и Юго-Восточной Азии в течение двадцатого века имели место исследования российских и бывших союзных ученых А. Ионова, В. Тюрина, Л. Полонской, В. Нгуен, Н. Никулина, Б. Алиевой, Ю. Гаврилова²;

¹ Amran Kasimin. Religion and social change among the indigenous people of the Malay peninsula. Dewan Bahasa dan Pustaka Kementerian Pendidikan Malaysia. Kuala Lumpur. 1991. Ahmad Fauzi Abdul Hamid. Islamic education in Malaysia. S.Rajaratnam School of International Studies. 2010. Pancasila. Christipher Rodney Yeoh. Malaysia, truly Asia? Religious Pluralism in Malaysia. 2005. Hafiz Zakariya. From Cairo to the Straits Settlements: modern Salafiyah Reformist Ideas in Malay Peninsula. Intellectual discourse, 2007. Vol 15, №2, 125-146. Che Noraini Hashim&Hasan Langgulung. Islamic religious curriculum in muslim countries: the experiences of Indonesia and Malaysia. Bulletin of education&research. June 2008, Vol.30, №1, Pp.1-19. Dr.Mohd. Shuhaimi bin Haji Ishak. Cultural and religious tolerance: the Malaysian experience. International conference on migration and intercultural relations. 19-20 November, 2009. Nurhafilah Musa. Federalism, constitutionalism and democratic society in multicultural societies – a case study of Malaysia. 2008. Samian A.L. pluralism and the study of religion: a comparative perspective.

